International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

Vol. 1 Issue 1 | pp. 381-386 **| ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

The Impact of the "Every Family – An Entrepreneur" Program on the Development of Family Businesses

Togayeva Dilnoza Azamatovna*

1. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti v.b.

*Correspondence: togayevadilnoza@44gmail.com

Abstract: The article analyzes the impact of the "Every Family is an Entrepreneur" programme, implemented in the Republic of Uzbekistan since 2018, and the subsequent family entrepreneurship development programmes on the development of family businesses. Using official statistics, it examines the programme's legal framework, funding sources and volumes, the regional distribution of loans, and the structure of family enterprises by region and economic activity. The study finds that the programme has substantially lowered entry barriers to family entrepreneurship, yet there is a wide gap between the scale of financial support and the number of officially registered family enterprises. A "credit – knowledge – market – institutionalization" model is proposed to strengthen the competitiveness of family enterprises.

Keywords: family entrepreneurship, family enterprise, "Every Family is an Entrepreneur" programme, concessional credit, microcredit, non-performing loans, competitiveness, regional development.

Citation: Azamatovna, T. D. The Impact of the "Every Family – An Entrepreneur" Program on the Development of Family Businesses. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 381-386.

Received: 22th Aug 2026
Revised: 26th Sept 2026
Accepted: 28th Oct 2026
Published: 22nd Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Kirish

Jahon iqtisodiyotida oilaviy biznes korxonalar umumiy sonining salmoqli qismini tashkil etadi va bandlikni ta'minlash, aholi daromadlarini oshirish hamda hududlarning mutanosib rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mulk, boshqaruv va mehnatning bir oila doirasida birlashuvi unga ishonchga asoslangan boshqaruv va moslashuvchanlik kabi raqobat ustunliklarini beradi.

Aholining katta qismi qishloqda yashashi va mehnat bozoriga har yili ko'plab yoshlar kirib kelishi sababli O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi PQ-3777-son qarori bilan "Har bir oila – tadbirkor" dasturi qabul qilindi. Uning maqsadi har bir oilaning, eng avvalo olis va og'ir hududlarda, tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat[1].

Dastur amalga oshirila boshlaganiga sakkiz yildan oshgan bo'lsa-da, uning oilaviy biznesga real ta'siri miqdoriy ko'rsatkichlar asosida yetarlicha baholanmagan. Tadqiqotning maqsadi – "Har bir oila – tadbirkor" dasturining oilaviy biznes rivojiga ta'sirini rasmiy statistik ma'lumotlar asosida baholash va oilaviy korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Oilaviy biznesni ilmiy jihatdan ta’riflashda J.Chrisman, J.Chua va P.Sharmalarning yondashuvi keng qo‘llaniladi. Mualliflarga ko‘ra, oilaviy korxonani boshqa korxonalardan ajratib turuvchi asosiy belgi oila a’zolarining mulkka egaligi emas, balki korxonani oila manfaatlari asosida boshqarish va uni avlodlar osha saqlab qolish niyatidir[7]. T.Habbershon va M.Williams resurslarga asoslangan yondashuv doirasida “familiness” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, oila va biznesning o‘zaro ta’siridan yuzaga keladigan noyob resurslar oilaviy korxona raqobat ustunligining manbai ekanini asoslagan[8]. L.Gomes-Mexiya va hammualliflar tomonidan ishlab chiqilgan “ijtimoiy-emotsional boylik” (socioemotional wealth) konsepsiyasi esa oilaviy korxonalar qarorlarida moliyaviy foyda bilan bir qatorda oila nufuzi, nazoratni saqlash va avlodlararo davomiylik kabi nomoliyaviy maqsadlar ham hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi[9]. M.Porterga ko‘ra esa korxona raqobatbardoshligi ichki resurslar bilan bir qatorda institutsional muhit bilan ham belgilanadi[10]. Bu davlat dasturlarini oilaviy korxonalar uchun tashqi raqobat omili sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Mikrokreditlash orqali kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash samaradorligi xalqaro adabiyotlarda keng muhokama qilingan. M.Yunus mikrokreditni kambag‘allikni qisqartirish vositasi sifatida asoslagan bo‘lsa[12], A.Banerji, D.Karlan va J.Zinman tomonidan umumlashtirilgan oltita randomizatsiyalangan tadqiqot natijalari mikrokreditning ta’siri ijobiy, ammo o‘rtacha darajada ekanini ko‘rsatgan: kredit biznes ochishga turtki beradi, biroq daromadning keskin o‘sishini kafolatlamaydi[11]. Mahalliy tadqiqotlarda esa dastur ta’sirini moliyalashtirish hajmi, muammoli kreditlar va oilaviy korxonalar soni dinamikasi bilan bog‘lab tahlil qilgan ishlar kam uchraydi.

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy, tuzilmaviy va dinamik tahlil, statistik guruhlash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining dasturga oid qarorlari, Markaziy bank va Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari, Hisob palatasi xulosalariga oid ochiq manbalar va ilmiy ishlar tashkil etdi. Dastur ta’siri uch yo‘nalishda baholandi: moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati; oilaviy korxonalar soni va tarkibi; kreditlar sifati va loyihalar barqarorligi.

4. Tahlil va natijalar

Dasturning amalga oshirilishini uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda (2018–2020-yillar) asosiy e’tibor aholini tadbirkorlikka ommaviy jalb qilishga qaratildi. Dastlabki yilning o‘zida “Har bir oila – tadbirkor” va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari doirasida 2 trln so‘mga yaqin mablag‘ ajratilib, 2 600 dan ortiq biznes loyiha amalga oshirildi[4]. Keyinchalik PQ-4231-son[2] va PQ-4720-son[3] qarorlari bilan aholini tadbirkorlikka jalb qilish ko‘lami kengaytirildi va dasturni moliyalashtirish manbalari ko‘paytirildi. PQ-5041-son qarorga ko‘ra, 2018–2020-yillarda oilaviy tadbirkorlik va bandlik dasturlari doirasida 600 mingdan ziyod aholi va tadbirkorlik subyektiga 15 trln so‘mdan ortiq imtiyozli kredit ajratilgan[5]. Muallif hisob-kitobiga ko‘ra, bu bir qarz oluvchiga o‘rtacha 25 mln so‘m to‘g‘ri kelganini anglatadi.

Ikkinchi bosqichda (2021–2023-yillar) dastur institutsional jihatdan qayta qurildi. 2021-yil 1-apreldan kredit arizalari yagona elektron platforma orqali qabul qilina boshladi, kredit mablag‘lari esa qarz oluvchiga emas, mahsulot yetkazib berilgandan so‘ng ta’minotchiga o‘tkaziladigan bo‘ldi[13]. Moliyalashtirish hajmi keskin oshdi (1-jadval).

1-jadval. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish dinamikasi

Yil	Ko‘rsatkich	Qiymat
2018	“Har bir oila – tadbirkor” va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlariga ajratilgan mablag‘ (amalda)	≈2,0 trln so‘m; 2 600+ loyiha
2018–2020	Imtiyozli kredit olgan aholi va tadbirkorlik subyektlari (amalda)	15+ trln so‘m; 600+ ming
2021	Dasturlarni moliyalashtirishning maqsadli parametri (reja)	9,04 trln so‘m
2022	Loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag‘ (reja)	10,0 trln so‘m
2022 (7 oy)	Yagona platforma orqali kreditlangan loyihalar (amalda)	6,0 trln so‘m; 250+ ming
2023	Dasturlarga yo‘naltirilgan mablag‘ (reja, kamida)	13,0 trln so‘m
2026	Rejadagi resurs va qo‘shimcha ajratilgan mablag‘	3,6 + 2,0 trln so‘m
2026 (9 oy)	Kredit olgan jismoniy va yuridik shaxslar (amalda, 1-oktyabr holatiga)	4,9 trln so‘m; 241+ ming

Manba: [4], [5], [6], [14], [18], [20], [21] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval ma’lumotlari dasturni moliyalashtirish 2018–2023-yillarda bir necha barobar o‘sganini ko‘rsatadi. 2021-yil uchun belgilangan 9,04 trln so‘mning 45,4 foizi (4,1 trln so‘m) ilgari berilgan kreditlarning qaytgan mablag‘lari, 27,7 foizi (2,5 trln so‘m) davlat byudjeti va 27,0 foizi (2,44 trln so‘m) Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan shakllantirilgan[5]. Ya’ni resurslarning deyarli yarmi kreditlar qaytishiga bog‘liq bo‘lgan. Biroq Hisob palatasi xulosalariga ko‘ra, PQ-5041-son qaror doirasida ajratilgan kreditlarning qariyb 2,8 trln so‘mi muammoli kreditga aylangan. Bu 2021-yil uchun rejalashtirilgan hajmning taxminan 31 foiziga teng. Muammoli kreditlar eng ko‘p to‘plangan hududlar qatorida Namangan, Andijon, Jizzax va Samarqand viloyatlari qayd etilgan[17]. Demak, birinchi bosqichda kredit hajmiga e’tibor loyihalar sifatidan ustun bo‘lgan.

Uchinchi bosqichda (2024–2026-yillar) dastur hajmdan sifatga va hududiy tabaqalashtirishga yo‘naldi. 2026-yilda oilaviy tadbirkorlik kreditining eng yuqori miqdori 1,5 barobar oshirilib, 50 mln so‘mga yetkazildi, uy mehmonxonasi va mahsulotni qayta ishlash mini texnologiyalari uchun esa 150 mln so‘mgacha garovsiz kredit nazarda tutildi. Barcha tumanlarda bir xil bo‘lgan 17,5 foizlik stavka o‘rniga 37 ta “og‘ir” tumanda 12 foizlik stavka joriy etildi[18]. Mazkur o‘zgarishlarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar (2026-yil 1-oktyabr holatiga)

Ko‘rsatkich	Mijozlar soni, ming	Kredit summasi, mlrd so‘m	Jami summadagi ulushi, %
Jami, respublika bo‘yicha	241+	4 900	100,0
12 foizlik imtiyozli stavkada ajratilgan kreditlar	49,4	1 200	24,5
jumladan: 37 ta “og‘ir” tumanda	40,8	986	20,1
915 ta “og‘ir” mahallada	14,9	354	7,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari[14]; ulushlar muallif tomonidan hisoblangan.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, kredit resurslarining qariyb to‘rtdan bir qismi ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan eng qiyin hududlarga past stavkada yo‘naltirilgan. Bir qarz oluvchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha kredit respublika bo‘yicha 20,3 mln so‘mni, 12 foizlik stavka bo‘yicha esa 24,3 mln so‘mni tashkil etgan. Bundan tashqari, “lider tadbirkor” mexanizmi joriy etilib, kooperatsiyaga jalb qilingan har bir oila uchun 50 mln so‘m hisobidan, ya’ni 100 ta oilani jalb qilgan tadbirkorga 5 mlrd so‘mgacha garovsiz kredit berish, kredit resurslarini boshqarish vakolatini esa tuman va shahar shtablariga o‘tkazish belgilandi[19]. Bu oilaviy biznesni qo‘shilgan qiymat zanjiriga ulashga qaratilgan muhim yangilikdir.

Dasturning oilaviy biznes rivojiga ta’sirini baholashda oilaviy korxonalar soni va tarkibi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. 2024-yil 1-iyul holatiga respublikada 42 761 ta oilaviy korxona faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning hududiy taqsimotida Samarqand viloyati yaqqol yetakchi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalarning hududlar bo‘yicha soni (2024-yil 1-iyul holatiga)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari[15] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatida 7 387 ta, ya’ni respublikadagi oilaviy korxonalarning 17,3 foizi faoliyat yuritgan. Bu ko‘rsatkich ikkinchi o‘rindagi Xorazm viloyatidan 1,6 barobar ko‘p. Sirdaryo viloyatida esa ular bor-yo‘g‘i 304 ta, ya’ni hududlar o‘rtasidagi farq 24 barobarga yetadi. Samarqand viloyatining bir vaqtning o‘zida oilaviy korxonalar soni bo‘yicha yetakchi va muammoli kreditlar eng ko‘p to‘plangan hududlar qatorida bo‘lishi[17] miqdoriy o‘sish har doim ham sifatli o‘sishni anglatmasligini tasdiqlaydi.

Oilaviy korxonalarning tarmoq tarkibi ham ularning raqobat imkoniyatlarini belgilaydi (2-rasm): oilaviy korxonalarning 40,2 foizi savdo, 19,4 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida faoliyat yuritadi, sanoat ulushi esa 22,4 foizni tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligining ulushi bor-yo‘g‘i 6,5 foiz, axborot va aloqa sohasiniki esa 0,6 foiz. Vaholanki, dastur kreditlarining katta qismi chorvachilik, parrandachilik, issiqxona va tomorqa loyihalariga yo‘naltirilgan. Bu oilaviy korxonalarning asosan past kirish to‘sig‘iga ega, ammo raqobat keskin bo‘lgan savdo va xizmat sohalarida to‘planganini, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan va innovatsion tarmoqlarda esa deyarli ishtirok etmasligini ko‘rsatadi.

Tahlilning eng muhim ilmiy natijasi shundan iboratki, dastur doirasidagi moliyaviy yordam ko‘lami bilan rasmiy oilaviy korxonalar soni o‘rtasida katta tafovut mavjud. Birgina 2026-yilning to‘qqiz oyida 241 mingdan ortiq shaxs kredit olgan bo‘lsa, faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-iyuldagi 42 761 tadan 2025-yil 1-iyulda 38 234 taga[16], 2025-yil 1-sentyabrda esa 37 434 taga kamaygan[16]. Ya’ni oilaviy korxonalar soni bir yilda 10,6 foizga qisqargan. Demak, dastur oilaviy tadbirkorlikni

asosan o‘zini o‘zi band qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlik va dehqon xo‘jaligi shaklida rag‘batlantirmoqda, “oilaviy korxona” shakli esa oilalar uchun jozibador emas. Natijada oilaviy biznesning katta qismi brend, eksport va korporativ boshqaruv kabi raqobatbardoshlik manbalaridan foydalana olmaydigan mikro darajada qolmoqda.



2-rasm. Oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimoti (2025-yil 1-sentyabr holatiga)

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari[16] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

5. Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, “Har bir oila – tadbirkor” dasturi oilaviy tadbirkorlikka kirish to‘siqlarini sezilarli pasaytirib, sakkiz yil davomida yuz minglab oilalarni imtiyozli moliyaviy resurslar bilan ta’minladi. Ikkinchidan, birinchi bosqichdagi hajmga yo‘naltirilganlik muammoli kreditlarni ko‘paytirdi, keyingi bosqichlarda bu muammo elektron platforma, tabaqalashtirilgan stavkalar va kooperatsiya orqali qisman hal etildi. Uchinchidan, moliyaviy yordam ko‘lami rasmiy oilaviy korxonalar soni o‘sishiga aylanmayapti, oilaviy korxonalar esa past qo‘shilgan qiymatli savdo va xizmat sohalarida to‘planib qolmoqda. Shu sababli muallif tomonidan “kredit – bilim – bozor – institutsionallashuv” modeli taklif etiladi (3-jadval).

3-jadval. Oilaviy korxonalarni qo‘llab-quvvatlashning taklif etilayotgan modeli

Model bloki	Taklif etilayotgan chora	Kutilayotgan natija
Kredit	Kreditni hududiy talab xaritasi asosida diversifikatsiya qilish; o‘z vaqtida qaytargan oilalarga keyingi bosqichda kattaroq kredit berish	Muammoli kreditlar kamayishi, mikrobiznesning kichik korxonaga o‘sishi
Bilim	Kredit berishdan oldin majburiy qisqa muddatli moliyaviy savodxonlik va biznes-reja kursi	Loyihalar barqarorligi va kredit intizomining oshishi
Bozor	“Lider tadbirkor”, klaster va marketplace’lar orqali sotish kanaliga ulash; qayta ishlash va qadoqlashni qo‘llab-quvvatlash	Qo‘shilgan qiymat ulushining oilaga qaytishi
Institutsionallashuv	“Oilaviy korxona” shaklida ro‘yxatdan o‘tganlarga soliq va kreditlash imtiyozlari; natijaviy monitoring ko‘rsatkichlarini e’lon qilish	Rasmiy oilaviy korxonalar sonining o‘sishi, dastur shaffofligi

muallif tomonidan tuzilgan.

Xususan, Samarqand viloyati kabi oilaviy korxonalar ko‘p to‘plangan hududlarda hunarmandchilik va oilaviy turizm klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu

choralar dastur e'tiborini kreditlar sonidan oilaviy korxonalarning barqarorligi va raqobatbardoshligiga ko'chirish imkonini beradi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-iyundagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-son qarori. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4231-son qarori. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-maydagi "Har bir oila – tadbirkor" dasturini moliyalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4720-son qarori. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi "Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5635-son Farmoni. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5041-son qarori. www.lex.uz
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-dekabrdagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son qarori. www.lex.uz
7. Chrisman J.J., Chua J.H., Sharma P. Defining the family business by behavior // Entrepreneurship Theory and Practice. – 1999. – Vol. 23, No. 4. – P. 19–39.
8. Yunus M. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. – New York: PublicAffairs, 1999.
9. 2021-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loyihalarni moliyalashtirish parametrlari tasdiqlandi // Spot.uz, 29.03.2021. www.spot.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida ajratilgan kreditlar to'g'risida axborot. 2026. www.cbu.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan oilaviy korxonalar soni nechta? 15.07.2024. www.stat.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda oilaviy korxonalar soni oshib bormoqda (2025-yil 1-iyul holatiga); Oilaviy korxonalar qaysi sohalarda ko'proq faoliyat yuritmoqda? 02.10.2025. www.stat.uz
13. Muammoga aylangan imtiyozli kreditlar soliq to'lovchilar yelkasiga yuklatilishi mumkin // Kun.uz, 02.04.2022. www.kun.uz
14. Oilaviy tadbirkorlik uchun imtiyozli kredit miqdori 50 mln so'mga yetkaziladi // Spot.uz, 23.01.2026. www.spot.uz
15. Lider tadbirkor 100 ta oila bilan hamkorlikni yo'lga qo'ysa, 5 milliard so'mgacha garovsiz kredit olishi mumkin bo'ladi // O'zA, 2026. www.uza.uz
16. 2023-yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlariga kamida 13 trln so'm yo'naltiriladi // Spot.uz, 01.02.2023. www.spot.uz
17. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari yagona elektron platformasi orqali onlayn ariza qabul qilish boshlandi // Spot.uz, 20.01.2023. www.spot.uz